

**Xalq bankining 2025-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish
sohasida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan
UMUMIY HISOBOTI**

**I. Xalq bankining Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi
bajarilgani to'g'risida umumiy axborot**

Xalq bankida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish maqsadida **"Xalq banki tizimida 2025-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejası"** tasdiqlandi. Chora-tadbirlar rejasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, ularni bartaraf etish mexanizmlari, muddatlari va mas'ullar belgilandi.

Belgilangan chora-tadbirlar rejası doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Bankning korrupsiyaga qarshi menejment tizimi ISO 37001:2016 **xalqaro standart talablariga muvofiqligi** xalqaro mustaqil tashqi audit tomonidan qayta baholanib **ijobiy xulosa berildi va muvofiqlik sertifikatı muddati uzaytirildi;**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-81-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida qarorda belgilangan talablar doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining **"e-anticor" platformasiga belgilangan muddatlarda yuklanishi ta'minlandi;**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-sonli qarori bilan belgilangan talablar doirasida **Xalq banki tizimida bo'sh ish o'rinlariga xodimlar ochiq tanlov asosida qabul qilinishi ta'minlandi.** Shuningdek, bank tizimiga xodimlarni ishga qabul qilishda va xodimlar boshqa lavozimga o'tkazilayotganda dastlab korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan to'liq o'rganilib, tegishli xulosalar berildi;

Manfaatlar to'qnashuvini olish maqsadida bank tizimiga xodimlarni ishga qabul qilishda va xodimlar boshqa lavozimga o'tkazilayotganda, shuningdek, bankning barcha xodimlaridan yillik **deklaratsiya olinib ma'lumotlar bankning Odob-axloq komissiyasi muhokamasiga kiritildi** va aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rildi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlar hamda ularning natijalari bo'yicha ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi.

Xususan,

- 2025-yilning 20-21-avgust kunlari "O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi milliy ekotizimni mustahkamlash" loyihasi doirasida kompayens-nazorat bo'linmalari xodimlari uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va

Birlashgan millatlar tashkiloti Taraqqiyot dasturi hamkorligida, Yevropa Ittifoqi ko'magida tashkil etilgan o'quv kursida **130 dan ortiq davlat organlari va tashkilotlari vakillari uchun** O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi mas'ul xodimlari o'z taqdimoti bilan ishtirok etdi. Unda korrupsiyaviy xavflarning oldini olish, shaffoflikni ta'minlash va komplayens mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan amaliy ishlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

- 2025-yil 11-dekabr kuni "9-dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash" kuni munosabati bilan bankda **"Ochiq eshiklar" kuni** o'tkazildi va ushbu tadbir ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritildi.

- korrupsiya va uning salbiy oqibatlarini bank xodimlari va mijozlariga tushuntirishga qaratilgan **ijtimoiy rolik** ishlab chiqilib keng jamoatchilik e'tiboriga havola qilindi;

Ichki idoraviy hujjatlarini korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlash maqsadida **65 ta** ichki me'yoriy hujjatlar va **55 ta** bank mahsulotlari (produkt) loyihalari ko'rib chiqilib tegishli tartibda xulosalar berildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirishga va korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan, shuningdek, bankning korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari ko'rsatilgan ko'rgazmali materiallar ishlab chiqilib bankning **barcha tarkibiy bo'linmalari hamda mintaqaviy va bank xizmatlari markazlariga tarqatildi.**

Bank xodimlariniy korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida 2025-yilda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi xodimlari tomonidan **bankning barcha xodimlari uchun sohaga oid o'quv seminarlar tashkil etildi.**

Bundan tashqari, **Huquqni muxofaza qilish akademiyasida** bankning **300 nafar** xodimlari "Davlat xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashish" mavzusida, **127 nafar** xodimlari "Korrupsiya qarshi kurashish bo'yicha samarali idoraviy chora-tadbirlar tashkil etilishini ta'minlash" mavzusida, **102 nafar** xodimlari xalqaro darajadagi **"Cert academy" tashkilotida** "ISO 37001:2016 Xalqaro standartiga muvofiq menejment tizimi" bo'yicha o'qitildi.

Shuningdek, bankning **korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmsi xodimlari uchun** sohaga oid bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan xalqaro darajadagi **"Cert academy" tashkilotining malakali xodimlarini jalb qilgan holda o'quv seminar tashkil etildi.**

Bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish yuzasidan bilim va ko'nikmalarini tekshirish maqsadida **4 182 nafar** bank xodimlari test sinovlaridan o'tkazildi.

Xalq bankining faoliyatidagi korrupsiyaviy korrupsiyaviy-xavf-xatarlarning xaritasi tasdiqlanib, korrupsiyaviy-xavf darajasi yuqori va o'rta bo'lgan lavozim va funksiyalarda xavfni kamaytirish chora-tadbirlar dasturi tasdilandi. Ushbu dastur doirasida korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi **o'rta bo'lgan 7 ta funksiyalarni**

bajarishga mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalarning xodimlari uchun o'quv seminarlar tashkil etildi, 4 ta bank xizmatlari raqamlashtirildi

Xalq banki tizimida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish maqsadida 2025-yilning dekabr oyida jamoatchilik o'rtasida anonim so'rovnomma o'tkazilib, natijalari tahlil qilinib tegishli chora-tadbirlar belgilandi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tavsiyaviy hujjatlari asosida bankda "Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati", "Odob-axloq qoidalarini", "Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti" "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish Siyosati", "Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti", "Xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma", "Kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma", "Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma", "Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti", "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish Reglamenti", "Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglament", "Davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi Nizom" hamda "Korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish, ularning ta'qibga olinmaslik kafolatlari Reglamenti" ishlab chiqilgan.

Ushbu ichki idoraviy me'yoriy hujjatlar qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirilib, tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Mazkur hujjatlar bankning barcha tarkibiy tuzilmalari, mintaqaviy va bank xizmatlari markazlariga yuborilib, xodimlarga tanishtirilgan.

III. Xavf-xatarlarni baholash.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti" (ro'yxat raqami: 3383, 31.08.2022 y.) hamda bank faoliyatida korrupsiyaviy xavf xatarlarni aniqlash va baholash tartibiga asosan amalga oshirildi. Baholash natijasiga ko'ra bankda 2025-yil davomida O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi, O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi, Korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar ro'yxati ishlab chiqilib amaliy ishlar olib borildi.

Bankda 24 ta funktsiya baholanib, baholash natijalariga ko'ra korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi 17 ta funktsiya past, 7 ta funktsiya o'rta deb baholandi.

Mazkur bankning **korrupsion xavf-xatarlar darajasi o'rta deb baholangan funktsiyalar:**

1. Kreditlash jarayonida qisman inson aralashuvi mavjudligi, jismoniy va yuridik shaxslardan kredit (ayrim turdagi) olish uchun arizalarini qabul qilish va uni ro'yxatga olish bosqichlari to'liq raqamlashmaganligi xatar darajasi o'rta deb baholanib, xavf-xatarlarni pasaytirish bo'yicha kreditlash amaliyotiga mas'ul bo'lgan xodimlarni o'qitish hamda kreditlash amaliyotini raqamlashtirish belgilandi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan 4 ta turdagi kreditlash amaliyoti to'liq raqamlashtirildi va mas'ul xodimlar sohaga oid o'qitildi.

2. Bank xodimlari tomonidan fuqarolarga pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlarni naqd shaklda to'lash jarayonida inson omilining mavjudligi, to'lovlarning naqd pulda to'lanishi xatar darajasi o'rta deb baholanib, xavf-xatarlarni pasaytirish bo'yicha pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlarni naqd shaklda amaliyotiga mas'ul bo'lgan xodimlarni doimiy o'qitish belgilandi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan mas'ul xodimlar sohaga oid o'qitildi.

3. Uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni bajarish doirasida qaror qabul qilishda inson omili mavjudligi xatar darajasi o'rta deb baholanib, xavf-xatarlarni pasaytirish bo'yicha mas'ul xodimlarni bankning Kreditlash tartibi va Kredit siyosati va korrupsiya qarshi kurashish sohasida doimiy o'qitish belgilandi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan mas'ul xodimlar sohaga oid o'qitildi.

4. Uchinchi shaxslardan pul shaklidagi majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish (faktoring), amaliyotlarini bajarishda inson omili qisman mavjudligi xatar darajasi o'rta deb baholanib, xavf-xatarlarni pasaytirish bo'yicha Faktoring amaliyotlarini bilan bog'liq talab etiladigan hujjatlarni elektron bazalardan olingan ma'lumotlar asosida avtomatik ravishda tahlil asosida "skoring" tizimini joriy qilish, Faktoring amaliyotlarini bajarish talablari va korrupsiyaviy xavflarni oldini olishda mas'ul xodimlarni doimiy o'qitib borish belgilandi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan Faktoring amaliyotlarini bilan bog'liq talab etiladigan hujjatlarni elektron bazalardan olingan ma'lumotlar asosida avtomatik ravishda tahlil asosida "skoring" tizimini joriy qilindi, hamda mas'ul xodimlar sohaga oid o'qitildi.

5. Lizing xizmatlarini ko'rsatishda lizing ob'ektlarini bahosini noto'g'ri (oshirib) ko'rsatishda xatar darajasi o'rta deb baholanib, xavf-xatarlarni pasaytirish bo'yicha kredit va unga tenglashtirilgan xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha ichki normativ hujjatlar talablarini tushuntirish va xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yia o'quv-seminarlar tashkil qilish belgilandi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan kredit va unga tenglashtirilgan xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha ichki normativ hujjatlar talablarini hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida mas'ul xodimlar o'qitildi.

6. Bankda bo'sh ish o'rinlariga "Head Hunter" tizimi orqali nomzodlar ma'lumotnomalarini minimal talablarga muvofiqligini o'rganish va tahlil qilishda noxolislikka yo'l qo'yilishi xatar darajasi o'rta deb baholanib, xavf-xatarlarni pasaytirish bo'yicha bo'sh ish o'rinlarga nomzodlarni izlash manbalari orqali e'lon berish, nomzodlarni tanlash va tahlil qilish, nomzodlarni tanlashda uch va undan ortiq xodim ishtirokida qaror qabul qilinishida ichki me'yoriy hujjat talablarini hamda Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish yuzasidan mas'ul xodimlarni doimiy o'qitib borish belgilandi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan bo'sh ish o'rinlarga nomzodlarni izlash manbalari orqali e'lon berish, nomzodlarni tanlash va tahlil qilish, nomzodlarni tanlashda uch va undan ortiq xodim ishtirokida qaror qabul qilinishida ichki me'yoriy hujjat talablari belgilandi hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish yuzasidan mas'ul xodimlarni o'qitildi.

7. Qurilish sohasida xaridlarni amalga oshirishda ichki me'yoriy hujjatlar mavjud emasligi hamda jarayonlar ketma-ketligi belgilanmanligi xatar darajasi o'rta deb baholanib, xavf-xatarlarni pasaytirish bo'yicha qurilish sohasida xaridlarni amalga oshirishda ichki me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish bunda jarayonlar ketma-ketligi belgilanishi hamda Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olishda mas'ul xodimlarni doimiy o'qitib borish belgilandi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan qurilish-pudrat shartnomasi uchun o'tkaziladigan tender (tanlash)ni "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimining bo'yicha maxsus axborot portalida elektron tarzda o'tkazish amaliyotini yo'lga quyildi hamda mas'ul xodimlar sohaga oid o'qitildi.

Bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan lavozim va eng ko'p moyil bo'lgan funksiya va lavozimlar uchun o'quv-trening mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha reja-dastur tasdiqlandi va dastur asosida ichki hamda tashqi ekspertlar ishtirokida o'quv-treninglar tashkil qilindi.

Xususan, bankning korrupsiya xavf-xatarlari darajasi o'rta lavozimdagi **300 nafar** xodimlar **Huquqni muxofaza qilish akademiyasida** "Davlat xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashish" mavzusida o'quv mashg'ulotlarga qatnashib sertifikatga ega bo'ldi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

Bank Boshqaruvinining tegishli qarori bilan:

"O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi Siyosatda bankda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va bartaraf etish tartiblari, shuningdek manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilishning qoidalari belgilangan.

Ushbu Siyosat hamda qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar ijrosini ta'minlash maqsadida bankning **7 172 nafar** (barcha) xodimlaridan manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risida yillik deklaratsiyalar olinib tahlil qilindi. Tahlili natijalariga ko'ra **170 nafar** xodimda manfaatlar to'qnashuvi

mavjudligi aniqlandi. Shundan, **5 nafar** xodimda mavjud va **165 nafar** xodimda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlari bo'yicha bankning Odob axloq komissiyasi tomonidan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha takliflar bank Boshqaruv Raisiga kiritilib, bartaraf etish chorasi ko'rildi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarini tashkilot sharnomalariga kiritish

Xalq banki va uning mijozlari o'rtasida tuziladigan bank xizmatlarini ko'rsatish shartnomalari, xo'jalik shartnomalari va shu turdagi boshqa shartnomalarga, shuningdek, xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashishga oid shartlar kiritilgan.

Jumladan, 2025-yilda bankka ishga qabul qilingan **828 nafar** xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalari hamda xaridlarni amalga oshirish bilan bog'liq **334 ta** shartnomalarga korrupsiyaga qarshi kurashish shartlari kiritilgan.

Kontragentlarni tekshirish

Xarid jarayonlarining ochiqligi va shaffoflikni ta'minlash, shuningdek, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida bankda xaridlarni amalga oshirish jarayonida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan ishtirokchilarda (kontragentlarda) affillanganlik, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa korrupsiyaviy xatarlarni oldini olishga qaratilgan o'rganishlar o'tkazilib tegishli xulosalar berib kelinmoqda.

Xususan, 2025-yilda **334 ta** hoatda xaridlarni amalga oshirish jarayonlarida **539 ta** (bankning Markaziy apparatda 381 ta, Andijon viloyatida 5 ta, Buxoro viloyatida 22 ta, Jizzax viloyatida 1 ta, Qashqadaryo viloyatida 2 ta, Farg'ona viloyatida 3 ta, Xorazm viloyatida 5 ta, Namangan viloyatida 30 ta, Navoiy viloyatida 13 ta, Qoraqolpog'iston Respublikasida 19 ta, Samarqand viloyatida 6 ta, Sirdaryo viloyatida 5 ta, Surxondaryo viloyatida 14 ta, Toshkent viloyatida 14 ta va Toshkent shahrida 19 ta) kontragentlar korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan o'rganilib, tegishli xulosalar berildi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Xalq banki tizimiga 2025-yilda ishga qabul qilingan **828 nafar** xodimlar korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan o'rganilib tegishli xulosalar berilgan. Shundan, bankning markaziy apparatiga ishga qabul qilingan 125 nafar, Toshkent shahar mintaqaviy markazida ishga qabul qilingan 61 nafar, Namangan viloyati mintaqaviy markazida ishga qabul qilingan 44 nafar, Farg'ona viloyati mintaqaviy markazida ishga qabul qilingan 59 nafar, Andijon viloyati mintaqaviy markazida ishga qabul qilingan 49 nafar, Surxondaryo viloyati mintaqaviy markazida ishga qabul qilingan 43 nafar, Toshkent viloyati mintaqaviy markazida ishga qabul qilingan 93 nafar, Samarqand viloyati mintaqaviy markazida ishga qabul qilingan 71 nafar, Qashqadaryo viloyati mintaqaviy markazida ishga qabul qilingan 53 nafar, Qoraqolpog'iston Respublikasi mintaqaviy markazida ishga qabul qilingan 71 nafar, Xorazm viloyati mintaqaviy markazida ishga qabul qilingan 27 nafar, Buxoro viloyati mintaqaviy markazida ishga qabul qilingan 33 nafar, Navoiy viloyati mintaqaviy markazida ishga qabul qilingan 18 nafar, Sirdaryo viloyati mintaqaviy markazida ishga qabul qilingan

39 nafar va Jizzax viloyati mintaqaviy markazida ishga qabul qilingan 42 nafar xodimlar korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan o'rganilib tegishli xulosalar berilgan. **Ma'lumot o'rnida** shuni aytish kerakki Xalq banki tizimiga xodimlar korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining **ijobiy xulosasi asosida qabul qilinadi.**

V. Ta'lim va kommunikatsiya.

2025-yilda O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan tashkil qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali idoraviy chora-tadbirlar tashkil etilishini ta'minlash" va "Davlat xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashish" mavzulari yuzasidan **onlayn** kurslarda **427 nafar** bankning mijozlar bilan bevosita ishlovchi xodimlari hamda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari qatnashib, sertifikatlar olishdi.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining **102 nafar** xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus kurslarida o'qitildi va ular xalqaro sertifikatga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, bankning **4 nafar** xodimlari O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilarni huquqlarini himoya qilish qo'mitasida tashkil etilgan o'quv seminarda qatnashib maxsus sertifikatga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, 2025 yil davomida bankning quyi tarmoqlarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish" mavzusida seminarlar tashkil etilib, ushbu tashkil etilgan seminarlarda **6 964 nafar** xodimlar **bevosita** qatnashib, o'z bilimlarini oshirdilar.

Xususan, bankning markaziy apparatida 814 nafar, Toshkent shahar mintaqaviy markazida 399 nafar, Namangan viloyati mintaqaviy markazida 387 nafar, Farg'ona viloyati mintaqaviy markazida 567 nafar, Andijon viloyati mintaqaviy markazida 480 nafar, Surxondaryo viloyati mintaqaviy markazida 459 nafar, Toshkent viloyati mintaqaviy markazida 578 nafar, Samarqand viloyati mintaqaviy markazida 586 nafar, Qashqadaryo viloyati mintaqaviy markazida 526 nafar, Qoraqolpog'iston Respublikasi mintaqaviy markazida 506 nafar, Xorazm viloyati mintaqaviy markazida 375 nafar, Buxoro viloyati mintaqaviy markazida 407 nafar, Navoiy viloyati mintaqaviy markazida 244 nafar, Sirdaryo viloyati mintaqaviy markazida 276 nafar va Jizzax viloyati mintaqaviy markazida 360 nafar xodimlar o'z bilimlarini oshirdilar.

Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha kommunikatsiya turlari (aloqa kanallari) quyidagicha:

Bank xodimlari va mijozlari korrupsiya haqida +998951979901 raqamli ishonch telefoni, komplayens@xb.uz pochta manzili, "Tezkor xabar" mobil ilovasi, 1106-raqamli qisqa raqam, xb.uz rasmiy sayti orqali va to'g'ridan-to'g'ri og'zaki murojaat qilishlari mumkin.

Shuningdek, Xalq banki tizimida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish maqsadida **2025-yilning 1-16-dekabr** kunlari keng jamoatchilik o'rtasida [google.forms](https://forms.google.com) onlayn dasturi orqali bankining rasmiy telegram kanalida **so'rovnoma o'tkazildi.**

So'rovnomada **10 ta** savol bo'lib, unda **878 nafar** respondentlar ishtirok etdi. Shundan, 480 nafarini Xalq banki xodimlari, 301 nafarini boshqa bank va moliya sohasi vakillari, 73 nafarini bank mijozlari va 24 nafarini boshqa sohalar vakillari tashkil etadi. So'rovnoma natijalari tahlil qilinib tegishli chora-tadbirlar belgilandi.

2025-yilning 20-21-avgust kunlari "O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi milliy ekotizimni mustahkamlash" loyihasi doirasida komplayens-nazorat bo'linmalari xodimlari uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Birlashgan millatlar tashkiloti Taraqqiyot dasturi hamkorligida, Yevropa Ittifoqi ko'magida tashkil etilgan o'quv kursida **130 dan ortiq davlat organlari va tashkilotlari vakillari uchun** O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi mas'ul xodimlari o'z taqdimoti bilan ishtirok etdi. Unda korrupsiyaviy xavflarning oldini olish, shaffoflikni ta'minlash va komplayens mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan amaliy ishlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

2025-yil 11-dekabr kuni "9-dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash" kuni munosabati bilan bankda "**Ochiq eshiklar**" kuni o'tkazildi va ushbu tadbir ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritildi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

Bankning korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali 2025-yil davomida jami 65 ta xabar kelib tushgan.

Shundan, bankning ishonch telefoni orqali 4 ta, rasmiy veb-sayti orqali 8 ta, "Tezkor xabar" mobil ilovasi va boshqa aloqa kanallari orqali 53 ta xabar kelib tushgan.

Hududlar kesimida: Andijon viloyati 3 ta, Buxoro viloyati 1 ta, Jizzax viloyati 3 ta, Qashqadaryo viloyati 5 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasi 4 ta, Navoiy viloyati 1 ta, Namangan viloyati 7 ta, Samarqand viloyati 9 ta, Sirdaryo viloyati 1 ta, Surxondaryo viloyati 2 ta, Toshkent viloyati 5 ta, Toshkent shahri 9 ta, Farg'ona viloyati 14 ta va Xorazm viloyati 1 ta.

Aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar yuzasidan bank tomonidan belgilangan tartibda o'rganishlar o'tkazildi.

O'rganish natijalariga ko'ra 7 ta xabar bo'yicha firibgarlik va ichki qoidalar buzilishi bilan bog'liq holatlar aniqlandi. Ushbu holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvlari o'tkazilib 12 nafar aybdor xodimlarga jazo choralari qo'llanildi hamda o'rganish natijalari bo'yicha to'plangan hujjatlar huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etildi.

VII. Monitoring va nazorat.

Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarini kamaytirish maqsadida "Xalq bankining ichki me'yoriy hujjatlari ishlab chiqilishida amaldagi qonunchilikka mosligini o'rganish bo'yicha Ekspert guruhi" tarkibiga Ichki nazorat va komplaens departamenti kiritildi.

Bugungi kunda, bankda ishlab chiqilayotgan barcha ichki me'yoriy hujjatlar mazkur departament tomonidan o'rganilib, tegishli xulosalar berib kelinmoqda.

Xususan, joriy yil davomida 65 ta ichki me'yoriy hujjatlar va 55 ta bank mahsulotlari (produkt) loyihalari ko'rib chiqilib, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsion holatlarni oldini olish yuzasidan tegishli tartibda xulosalar berildi.

Hisobot davrida Ichki nazorat va komplayens departamenti tomonidan amalga oshirilgan monitoring natijasida jami 12 ta holatda bank xodimlari tomonidan ichki me'yoriy hujjatlar talablarini buzganligi aniqlandi. Aniqlangan holatlar bo'yicha huquqiy baho berilish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

Kelib tushgan murojaatlar bo'yicha 7 ta holatda tegishli tartibda xizmat tekshiruvi o'tkazilgan va ularning natijasida:

7 ta holatda qoidabuzarlik o'z tasdig'ini topgan hamda to'plangan ma'lumotlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim qilingan.

Aniqlangan qoidabuzarliklar holatlari bo'yicha 3 ta xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan, 9 ta xodimga intizomiy jazo chorasi ko'rildi.

Aniqlangan holatlarni kelgusida takrorlanmaslik va oldini olish yuzasidan bank Bashqaruviga takliflar kiritildi.

IX. Xulosalar

Davlat idoralarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyati samaradorligining **2023-yil va 2024-yil yakunlari bo'yicha** Xalq banki **"Yaxshi"** toifaga kiritilgan. **Taqqoslash uchun 2022-yil yakunlari bo'yicha** Xalq bankining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyati samaradorligi **"Qoniqarli"** baholangan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyati samaradorligini baholash natijalari bo'yicha ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar va tavsiyalardan kelib chiqib quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Xalq bankida bo'sh ish o'rinlarga kadrlarni tanlov asosida qabul qilish tizimining, o'tkazilgan tanlov materiallari, o'tkaziladigan sinov tadbirlarini internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida kuzatish imkoni yaratildi;

Xalq bankiga xodimlarni ishga qabul qilishda va xodimlar boshqa lavozimga o'tkazilayotganda, shuningdek, bankning barcha xodimlaridan har yil yillik deklaratsiya olish tizimi raqamlashtirildi;

korrupsiya va uning salbiy oqibatlarini bank xodimlari va mijozlariga tushuntirishga qaratilgan ijtimoiy rolik ishlab chiqilib, jamoatchilik e'tiboriga havola qilindi;

bank xizmatlarini ko'rsatishda inson omilini kamaytirish maqsadida 30 dan ortiq bank xizmatlari, xususan, kreditlash, omonat (depozit) amaliyotlari, to'lov va boshqa xizmatlar raqamlashtirildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida korrupsiyaning oldini olish yuzasidan ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Kelgusida mazkur tadbirlarni izchil davom ettirib, bu boradagi ishlarni tizimli tashkil qilinadi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Takliflar:

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlarini sohaga oid o'qitish, xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida turdosh tashkilotlarida amaliyot o'tashini tashkil etish;

barcha tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari uchun sohani tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib ishlarni tashkil qilish va yuritish bo'yicha yagona uslubiy qo'llanma va (yoki) dastur ishlab chiqish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini oshirish maqsadida 2026-yilda quyidagilar asosiy ustuvor vazifalar belgilab olingan:

korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va talablari bo'yicha o'quv-treninglar hamda test sinovlarini o'tkazish;

maishiy korrupsiyani oldini olish maqsadida keng jamoatchilik o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish orqali korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi xavfi yuqori bo'lgan funktsiya va bank xizmatlarini aniqlash va ularda inson omilini kamaytirish va raqamlashtirish choralari ko'rish;

bankining korrupsiyaga qarshi menejment tizimini ISO 37001:2016 xalqaro standart talablariga muvofiqligini tashqi audit tashkilotlari tomonidan qayta baholashdan o'tkazish;

korrupsiyaviy holatlarni kelib chiqishini kamaytirish maqsadida targ'ibot tashviqot ko'lamini oshirish.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
xizmati rahbari v.v.b.**

A. Xaitov